

TA'LIM SIFATI YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" munosabati bilan
yosh olim va talabalar o'rtasida o'tkazilgan
ilmiy-amaliy

KONFERENSIYA TO'PLAMI

Qo'qon universiteti 15-may, 2023-yil

Ushbu to'plam "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" munosabati bilan o'tkazilgan yosh olim va talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan.



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Quadratillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohruzbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Yosh olim va talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 15 may, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS Zuxra Bektemirova Omonjon qizi, Toshkent Pediatriya Tibbiyot institute	1273-1275
TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – YANGI IMKONIYATLAR Ahmadjonova Umida Tojimurodovna, Jizzax politexnika institute, Ahmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna, Jizzax politexnika institute	1276-1277
BO'LAJAK JURNALISTNING KASHIY MADANIYATI VA MAHORATINI SHAKILLANTIRISHDAGI PRINSIPLAR Xoliqova Saboxat Abdujabborovna, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti noshirlik ishi va muharrirlik fakulteti 2-bosqich magistranti	1278-1280
BIG DATE TIZIMI HAQIDA UMUMIY TASNIF VA TUSHUNCHA Tolibjonov Xurshidbek Hayotjon o'g'li, Qo'qon universiteti 4-bosqich talabasi, Meliboyev Azizjon Ikromjon o'g'li, Qo'qon universiteti o'qituvchisi	1281-1284
AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li, Shahrisabiz davlat pedagogika inistituti o'qituvchisi	1284-1287
TELEVISION SHOU JANRINING O'ZIGA XOSLIGI G'afurova Mohichehra, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti	1288-1292
МОБИЛ ЖУРНАЛИСТИКА ИСТИҚБОЛЛАРИ Умирова Шахноза Абдумуниновна, Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети 2-босқич магистранти	1293-1295
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY IN EFL CLASSES Najmiddinova Mumtozbeqim, a student of English language and literature faculty, Igamberdieva Shahnoza, teacher of English language and literature faculty Fergana State University.	1296-1298
PISA-XALQARO BAHOLASH DASTURINING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI Qurbanova Latofat Mamadiyorovna Xamidov Sobir Xodiyevich Jizzax politexnika instituti	1299-1300
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDAGI MUZEYLAR TARAQQIYOTI Musayeva Dilshoda Abdurahim qizi Namangan davlat universiteti 3-bosqich talabasi	1301-1304
INTERACTIVE LEARNING IN PHILOLOGY: BEST WAYS TO USE TECHNOLOGICAL LEARNING TOOLS Valieva Nargizakhon Zamir kizi Student of 3rd English faculty Uzbekistan State World Languages University	1305-1306
AKSILOGIYA VA QADRIYAT TUSHUNCHALARI HAQIDA Sharipova Ozoda Xolmurodovna Buxoro davlat universiteti doktoranti	1307-1310
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ Тевосян Гаяне Артуровна, кафедра мировых языков Кокандского университета	1311-1313
THE USAGE OF GENDER IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS Isakova Zilolakhon Zokirovna Kokand State Pedagogical Institute, PhD Madina Koraboyeva Iqboljon qizi Kokand University, student	1314-1318
YASHIL IQTISODIYOT: ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI Izzatulloyev Bahodir Ubaydullo o'g'li Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi	1319-1321

AKSILOGIYA VA QADRIYAT TUSHUNCHALARI HAQIDA

Sharipova Ozoda Xolmurodovna
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda aksiologiya va qadriyat tushunchalari izohlangan, qadriyatlarga ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ko'rsatilgan munosabat va uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni bir qator manbalarda berilgan ma'lumotlar asosida qiyosiy-tahliliy o'rganilib, xulosali fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: aksiologiya, qadriyat, qadr, qadriyatlar tizimi, qadrlash tamoyillari, qadrlash mezonlari.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni zamonlar sinovidan o'tgan milliy qadriyatlarga hurmat ruhida o'z mustaqil fikriga, sog'lom dunyoqarashga ega, boy ma'naviyatli, har qanday mafkuraviy tazyiq va ma'naviy tahdidlarga zarba berishga tayyor insonlar qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir". Shu yo'nalishda bugungi kunda mamlakatimizda azaliy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy sohani yanada yaxshilash maqsadida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Qadriyatlarga mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qaralishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini hisobga olgan holda ularning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur sohadagi tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda turli soha adabiyotlarida qadriyaviy ma'nolarni ifodalovchi *aksiologiya* va *qadriyat* so'zi keng qo'llanmoqda. Shu o'rinda: "Aksiologiya va qadriyat tushunchasining mohiyati nima va uning insoniyat tarixida tutgan o'rni qanday bo'lgan?", degan tabiiy savol tug'iladi. Aksiologiya (yun. *axia* – qimmat, qadr va *logos* – ta'limot so'zlaridan) – falsafaning qadriyatlarni o'rganadigan va u bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadigan mustaqil sohalaridan biri hisoblanadi. Qadriyat esa borliqdagi voqeliklarning subyekt uchun o'z asl qiymatidan tashqari qiymatga ega bo'lishidir. U narsa yoki buyumlarning iqtisodiy qiymatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi.

Ilmiy asosda qadriyatlar muayyan hodisalarning qiymatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya sifatida o'rganiladi. Dastlab aksiologiya haqida batafsil to'xtalsak.

Mazkur tushuncha G'arb falsafiy tushunchalari qatorida XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida umumiy "qadriy muammolar"ning ba'zi murakkab masalalarini hal etishga urinish natijasi o'laroq yuzaga kelgan bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Pedagogika sohasida bu terminning qo'llana boshlangan davri haqida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar keltiriladi. Bir qator adabiyotlarda aksiologiya pedagogik bilimlarning mustaqil sohasi sifatida XX asrning 80-yillarida o'rganila boshlanganligi, 90-yillarga kelib esa uning jadal rivojlanishi sodir bo'lganligi aytiladi. Buning asosiy sababi qilib shaxsning ma'naviy ehtiyojlariga jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda talabning keskin oshganligi ko'rsatiladi. Mazkur tushuncha turli adabiyotlarda turlicha talqin etilgan. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da "Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi fan" ko'rinishidagi qisqacha ta'rif keltiriladi. I.T.Frolova tahriri ostidagi "Falsafiy lug'at" (1986) da esa aksiologiyaga "qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan

tadqiq etish", deb ta'rif beriladi. Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi "Falsafa: qomusiy lug'at" (2004)da aksiologiya "aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasi" sifatida izohlanadi.

Qadriyat haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu tushuncha garchi insoniyat tarixi kabi uzoq o'tmishga ega bo'lsa-da, ilmiy-terminologik jihatdan yaqin asrlarga kelib tadqiq qilina boshlangan. Biroq qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta'limotning ilmiy ta'riflari adabiyotlarda aksiologiya tushunchasiga qaraganda biroz oldinroq kiritila boshlangan.

Qadriyat so'zi uchun yasalish asosi bo'lib xizmat qilgan "qadr" so'zi "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da arabcha "xizmatlarini munosib baholadi" ma'nosini ifodalovchi "qadara" fe'lining I bob masdaridan kelib chiqqanligi va o'zbek tilida "hurmat-izzat ko'rsatishga loyqlik", "ahamiyatini, qiymatini yo'qotmaganlik" ma'nosi ifodalashi aytiladi. Lekin "qadriyat" so'zi haqida ma'lumot berib o'tilmaydi. 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham *qadriyat* so'ziga izoh berilmagan. 2007-2008-yillarda chop etilgan yangi tahrirdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" esa bu so'z izohi quyidagicha keltirilgan: "QADRIYAT [a. - qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi] - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy-ma'naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi". "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da ham xuddi shunday ta'rifni ko'rishimiz mumkin.

Qadriyat tushunchasi turli sohalarda xilma-xil ma'nolarda qo'llanmoqda. Kundalik hayotda kishilar o'rtasidagi muloqotda, ommaviy axborot vositalarida bu so'z anglatadigan ma'no o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Ko'pchilik nazdida qiymatga ega narsalar (masalan, taqinchoqlar, qimmatbaho buyumlar va h.k.), ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, tabiat hodisalari, an'ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bularga qo'shimcha ravishda, odamlar o'zlari ishonib, intilib, orzu qilib yashaydigan maqsad, ideallariga ham qadriyat sifatida qaraydilar.

Qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan ijtimoiy fanlarning har bir sohasida bu tushunchaga, asosan, o'z yo'nalishidan kelib chiqilgan holda ta'rif berilgan.

Falsafiy adabiyotlarda XIX asr o'rtasiga qadar "borliq" va "qadriyat" tushunchalari bir-biridan ajratilmaganligi, borliq tushunchasi mavjudlik, ya'ni bir narsaning mavjud bo'lishi va uning mohiyati singari ikki komponentga ajratilib o'rganila boshlanishi natijasida aksiologiya mustaqil fan sifatida yuzaga kelganligi aytiladi. Mavjudlik va uning mohiyati obyekt va subyektning o'zaro munosabati, ta'siri jarayonida namoyon bo'luvchi shunday bir metafizik jarayonki, u obyekt mavjudligining o'zigagina bog'liq bo'lmay, go'yo u ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turgan holda u uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni qadriyat obyektning obyektidan tashqari qiymatga ega bo'lishi deb baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, obyekt va subyektning o'zaro ta'siri paytida subyekt uchun obyektida shunday bir narsa ayon bo'ladiki, uni obyekt mavjud bo'lishining o'zigagina bog'lab bo'lmaydi, ya'ni u go'yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi. Obyekt va subyektning o'zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasi kategorial apparatining elemenli sifatida shakllanishi uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi.

Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Qadriyat - falsafiy va sotsiologik tushuncha. U, birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qiymatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi". "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat

uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim", deyiladi "Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot" nomli ilmiy ishlar to'plamida. Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi "Falsafa: qomusiy lug'at" (2004)da yana 'Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha', deb ta'rif berilgan. O.Tohirov, B.Ochilovalaming ta'kidlashicha, "Qadriyat - bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir". "Qadriyatlar, - deb yozadi O.Musurmonova, - inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir".

"Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at"da: "Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi", degan ta'rif berilgan. B.Ziyomhammadov o'zining "Komillikka eltuvchi kitob" asarida *qadriyat* so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi".

Qadriyat tushunchasiga berilgan ta'riflardan shu narsa ayon bo'ladiki, unda asosan quyidagi jihatlar birlashgan holda namoyon bo'ladi:

- insonning amaliy va emotsional munosabatidan kelib chiqqan holda berilgan borliq voqeliklarining bahosi;
- insonning psixologik jihatdan axloqiy me'yorlari o'lchovi;
- odamlararo munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalar ta'rifi.

Xulosa qilib aytganda, *qadriyat* qadrga egalik semasiga ega bo'lib, u narsa va buyumlarning iqtisodiy qimmatiga nisbatan emas, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelik shakllari, holatlar, narsalar, voqea va hodisalar, holat va jarayonlar, sifatlar, talab-tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir. Qadriyatga qadr-qimmatga ega falsafiy tushuncha sifatida qaramoq unga berilishi mumkin bo'lgan son-sanoqsiz ta'riflarni markazlashtirishga, uning mazmunini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Dunyoda qadrlanadigan mavjudliklar nihoyatga cheksiz bo'lib, qadriyat ularning birortasi uchun bevosita nomlovchi bo'lmasdan, balki ularning qadrini anglatuvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati :

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. 1-jild.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O'zbekiston, 2018. 2-Tom
3. Nazarov Q. Aksiologiya - qadriyatlar falsafasi. -T.: "Akademiya" nashriyoti, 2011.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2011. -3 b.
5. Falsafa. Qomusiy lug'at. -T.: Sharq, 2004.
6. Туленов Ж. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тарақиёт. -Т.:Ўзбекистон, 1999. - Б. 8.
7. Хан V.S. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) // Falsafa: Darslik / [M.A. Ahmedova, V.S.Xan, D.A.Alimova va boshq.]; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006, -Б. 434.